

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Davlat muassasalarini isloh qilishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-123-son qarorining 1-bandi v-kichik bandi ijrosi yuzasidan ma’lumotlar**

Davlat muassasasining nomi	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi
Faoliyat turi	Markaz adliya organlari va muassasalari, advokatlar, notariuslar, patent vakillari, mediatorlar, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar barcha tashkilotlarning yuridik xizmati xodimlarini hamda huquqiy bilimlarini oshirish talab etiladigan davlat boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, boshqa soha mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshiradi
Funksiya va vakolatlari	<p>Tinglovchilarni qabul qilinayotgan yangi qonunlar va amaldagi qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o‘zgartirish va qo‘shimchalar mazmun-mohiyati, davlat va jamiyat qurilishi sohasini yanada demokratlashtirish jarayonlari, shuningdek davlat hokimiyati va boshqaruvi, sud, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida huquqni qo‘llashning zamonaviy talablari hamda ushbu sohadagi xorijiy davlatlar tajribasi bilan yaqindan tanishtirish.</p> <p>-o‘quv, ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun respublikaning yetakchi ta’lim, ilmiy-tadqiqot muassasalari, davlat organlari va jamoat tashkilotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta’lim va ilmiy muassasalarining tajribali olimlari, boshqa xodimlari va ekspertlarini jalb etish, shu jumladan shartnoma asosida jalb etish.</p> <p>Davlat va jamiyat qurilishi sohasini demokratlashtirish, sud-huquq tizimi, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi islohotlarning yo‘nalishlari va zamonaviy talablari asosida adliya, yuridik xizmat, advokatura bo‘yicha huquqshunos va boshqa kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.</p> <p>-boshqa soha mutaxassislarining huquqiy bilimlarini oshirish bo‘yicha shartnoma asosida o‘qishlar tashkil etish;</p> <p>-huquqshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish;</p> <p>-huquqshunos kadrlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida tavsiyalar ishlab chiqish va taqdim etish;</p> <p>-huquqshunos kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar hamda xorijiy davlatlar ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik qilish.</p>
Rahbari	Sherzad Mirjalilovich Rabiyeu
Muassasaning hududlar va yuqori turuvchi organlari	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Yuristlar malakasini oshirish markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlardagi hududiy filiallari

Ko'chmas mulk ob'ekti	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi 289-f-son farmoyishiga asosan Toshkent shahar M.Ulug'bek tumani Katta Darxon ko'chasi 6-uy manzilda joylashgan, yer uchastkasining umumiy maydoni 8278 kv.m, foydali maydoni 3340.33 kv.m bino Yuristlar malakasini oshirish markaziga operativ boshqaruv huquqi bilan ajratilgan. Liter 0001 A – O'quv binosi, Liter 0002 B – O'quv ustaxonalari, Liter 0003 V – Sport zal, Liter 0004 G –Hojatxona, Liter 0005 D - O'quv ustaxonalari, Liter 0006 Y – Ustaxona , Liter 0007 J – Qorovulxona
Qurilishi tugallanmagan ob'ektlar	yo'q
Avtotransport vositalari	1. Lasetti, davlat raqami 01/831 AAA, ishlab chiqarilgan yili 2020-yil 2. Lasetti, davlat raqami 01/208 DAV, ishlab chiqarilgan yili 2020-yil 3. Lasetti, davlat raqami 01/833 AAA, ishlab chiqarilgan yili 2020-yil 4. Damas, davlat raqami 01/834 AAA, ishlab chiqarilgan yili 2014-yil
2022-yil 1-chorakda byudjetdan ajratilgan mablag'lar va rejalashtirilayotgan xarajatlar tarkibi	2022-yil 1-chorakda byudjetdan ajratilgan mablag'lar jami 859 692 000 (Sakkiz yuz ellik to'qqiz million olti yuz to'qson ikki ming) so'm. Shundan, mehnatga haq to'lash jamg'armasi: 658 539 000 (olti yuz ellik sakkiz million besh yuz o'tiz to'qqiz ming) so'm. Yagona ijtimoiy to'lov: 163053 (Bir yuz oltmish uch million ellik uch ming) so'm. Boshqa xarajatlar: 38100 (O'ttiz sakkiz mililon yuz ming) so'm.